O’zbek astronom olimi Islom dunyosi fanlar akademiyasi a’zosi bo’ldi

O’zR FA Astronomiya instituti laboratoriya mudiri, fizika-matematika fanlari doktori, professor, Butunjahon fanlar akademiyasining akademigi (The World Academy of Sciences, TWAS) Bobomurat Ahmedov Islom dunyosi fanlar akademiyasining (Islamic World Academy of Sciences, IAS) a’zosi etib saylandi.



Iordaniyaning Ummon shahrida joylashgan IAS akademiyasi 1986-yilda Islom dunyosi mamlakatlarining barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun fan va texnologiyalarni targ’ib qilish maqsadida tashkil etilgan. IAS akademiyasi, shuningdek, Islom Hamkorlik Tashkilotining (IHT) Ilmiy-texnikaviy hamkorlik bo’yicha doimiy qo’mitasi (COMSTECH) hisoblanadi. Uning a’zosi bo’lish olimning dunyo hamjamiyati tomonidan tan olinishini anglatadi.

2020-yilning 1-dekabr kuni Iordaniyaning Ummon shahrida Islom dunyosi fanlar akademiyasining Bosh assambleyasining 22-yalpi yig’ilishi bo’lib o’tdi, unda yangi a’zolar, shu qatorda o’zbekistonlik olim – B.J. Axmedov ham saylandi.

Professor B.J. Axmedov O’zR FA Astronomiya instituti Nazariy astrofizika laboratoriyasi mudiri sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. U asosan umumiy nisbiylik nazariyasi, gravitatsiya nazariyasi, relyativistik astrofizika va kompakt gravitatsion obyektlar fizikasi sohasida ilmiy tadqiqotlar olib boradi. U maydon nazariyasi, gravitatsion o’zaro ta’sir nazariyasi, relyativistik va yadro astrofizikasi sohasidagi ilmiy-tadqiqotlar va pedagogik tajribaga ega. U shu sohalarda 200 dan ortiq ilmiy nashrlarning muallifi hamda xalqaro Scopus va Google scholar ma’lumotlar bazasida Xirsh indeksi mos holda 27 va 32 ga teng bo’lgan mamlakatda ilmiy ishlariga eng ko’p havola qilingan mualliflardan biridir.

Axmedov B. J. O’zbekistonda 2017-yil uchun eng ko’p havola qilingan muallif sifatida mukofot bilan taqdirlandi («Highly Cited Author», Web of Science), 2018-yil uchun "Yil olimi - 2018" («Researcher of theYear», Scopus) mukofotlariga sazovor bo’ldi. 2012 yilda"Mehnat Shuxrati" ordeni bilan taqdirlangan. U Dehli Markaziy Universitetining faxriy professori, Xalqaro nazariy fizika markazining (Italiya) relyativistik astrofizika va gravitatsiya fan yo’nalishlari bo’yicha a’zosi va mintaqaviy koordinatori, Hindistondagi Astronomiya va Astrofizika Universitetlararo Markazi va Tata fundamental tadqiqotlar institutining a’zosi. Shu bilan bir qatorda Axmedov B.J. CNR, DAAD, TWAS, ICTP, Volkswagen, Erasmus+, KFUPM, PIFI, NATO kabi xalqaro grantlar rahbari, o’ttizdan ortiq xorijiy jurnalining taqrizchisi, Germaniyadagi Springer nashriyot uyining "Arabian Journal of Mathematics" ilmiy jurnali muharriri, O’zbekiston fizika jurnalining bosh muharriridir.

B.J. Axmedov O’zbekistonda relyativistik astrofizika bo’yicha yangi ilmiy maktab yaratgan. U yurtimizda va xorijiy ilmiy maskanlarda fan doktorlari va fan nomzodlari ilmiy darajalariga ega xalqaro miqyosda tan olingan va iste’dodli yosh olimlarning ulkan jamoasini tarbiyalagan.